



QALAM ALAM

KIMDIR
UYIGA,
KIMDIR
UYIDAN...



JALOLIDDIN

Muallif haqida:

Nafsim uchun - Zo'rman

Kibrim uchun - Eng zo'riman

Aqlim uchun - Johilman

Qalbim uchun - Munofiqman

Ko'zim uchun - Gunohkorman

Tilim uchun - Yolg'onchiman

Iymonim uchun - Zaifman

Amalim uchun - Riyokorman

O'zim uchun - Soxtaman

"Bizni izlagan topadi. Topgan taniydi. Tanigan sevadi. Sevgan oshiq bo'ladi. Bizga oshiq bo'lganlarga esa, biz ham oshiqmiz...."

(Jaloliddin)

Mundarija

Muqaddima.....	1
Hayot.....	2
Libosingiz nima?.....	4
Jumaning barakasi.....	6
Himmati pastlar.....	12
Ko'rinishga aldanmang.....	14
Niyatning ahamiyati.....	17
Niyatni yangilash.....	22
To'ylarimiz haqida o'ylarimiz.....	24
Bomdod namozi.....	27
Shukr qilish.....	31
Tilanchilik.....	34
"Влажная салфетка".....	35
O'g'rilar.....	36
Oilaviy hayot.....	38
Kitob o'qi.....	44
Ayb qidirish.....	47
Baxt.....	48
Mukammallik.....	51
Kashandalar.....	54
Salom berish.....	56
So'ngi so'z.....	58

Muqaddima

Mehribon va rahimli Alloh nomi ila boshlayman. Allohga hamdu sanolar, Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga salavotlar bo'lsin. Kitob yozish haqida ko'p o'yladim va oxiri bir qarorga kelib yozishni boshladim. Kamina o'zimni kitob yozishga loyiq deb bilmaydi, shu bilan birga bu narsa armon bo'lib qolishini ham istamaydi. Bu kitobni siz aziz kitobxonlar uchun foydali qilish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz insha'Alloh. Bu kitobda bu dunyoda hayot kechirish davomida duch kelgan ibratli voqealar va ulardan olgan xulosalarimizni ko'rishingiz mumkin. Allohdan foydali ilm va ilmimizga amalni so'rab qolamiz. Agar ko'chada jala quyib sel kelayotgan bo'lsa ham, inson chelagini teskari qo'ygan bo'lsa unga suv to'lmaydi! Kitob o'qishda ham shunaqa, inson kitobni aqli, hamma narsani biladigandek o'qisa undan hech nima ololmaydi! Biz sizlarga jala yog'dirib berishni va'da qilmaymiz lekin Alloh qodir qilganicha chelagingizni to'ldirishga harakat qilamiz, insha'Alloh.

Hayot

Inson hayot haqida tafakkur qilishi lozim, hayotida bo'lgan hodisalar, yon-atrofida bo'layotgan holatlar, xullas inson doim hayotini tahlil qilib borishi lozim.

Inson bu dunyo hayotida yashar ekan, u inson aniq 8ta holatni boshidan kechiradi.

1. Xursand bo'ladi.
2. Xafa bo'ladi.
3. Yaxshi ko'rgan insonlari bilan birga bo'ladi.
4. Yaxshi ko'rgan insonlarini yo'qotadi.
5. Boshidan og'ir kunlar o'tadi.
6. Yengil kunlarni ham yashaydi.
7. Sog'lom inson sifatida hayot kechiradi.
8. Kasal bo'ladigan kunlari ham bo'ladi.

Ya'ni bu holatlarni tabiiy qabul qilish lozim va yashashda davom etmoqlik kerak. O'zi o'ylab qarasak, Allohga iymon keltirgan inson ikkita holatga tushmas ekan:

1. Siqilmaydi.
2. Asabiylashmaydi.

Hamma narsa Allohdan ekanligini bilgan inson nega siqilsin, nega asabiylashsin. Insonlar shunaqangi kichik narsalar uchun asabiylashib, siqilishadiki hatto bu insonlarni Allohga bo'lgan iymonlari bormi o'zi degin keladi (astag'firulloh). Allohga iymon keltirgan va hamma narsani Allohdan deb biluvchi, kichik narsalar uchun yaqinlarini kayfiyatini buzmaydigan, siqilmaydigan va hech narsadan asabiylashmaydigan inson butun umrlik hamrohimiz bo'lsa-chi? Bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Siqilmaslik va asabiylashmaslik haqida anchadan beri yozmoqchi bo'ldim, ammo bunga tayyor emas edim. Yozdimmi demak mendagi mas'uliyat yanada ortadi, inson o'zi amal qilmaydigan narsalarni yozishi to'g'ri emas. Xulosa: men Allohga iymon keltirganman, shu uchun siqilmayman va asabiylashmayman va yuqoridagi 8ta holatga tabiiy qarayman.

Xursandchilikmi: Alhamdulillah

G'amginlikmi: Alhamdulillah

"Alloh hech bir jonga toqatidan tashqari narsani taklif etmaydi " (Baqara surasi, 286-oyat)

Libosingiz nima ?

Ka'bani ustiga yopilgan mato (ka'bapo'sh) tabarruk hisbolanadi, u bir oddiy mato, lekin uni matolar orasida ulug' qilgan narsa bu uning Ka'ba ustidaligidir.

Insonlarda ham shunga o'xshash, biz bir tuproqdan vujudga kelgan jasadmiz, qabrdan chirib ketadigan, lekin bu jasadni ulug' qilib turgan narsalar bor:

- Iymon
- Go'zal axloq
- Ilm

Inson insoni o'zini yaxshi ko'rmaydi, ya'ni inson bir insondagi qaysidir xislatini yoqtiradi, Ilm bo'lishi mumkin, hush muomilaligi bo'lishi mumkin yoki saxiyligi...

Siz nimani libos qilgansiz?

*"Insonlarni ko'rdik - go'zal bo'lmagan,
Go'zallarni ko'rdik - inson bo'lmagan"*

Jumaning barakasi

Juma kuni edi, har doimgidek juma kungi sunnatlarini qilib, uyga taksi chaqirdim, o'zi masjidga piyoda borgan afzal va savobi ko'proq lekin g'usl olgan edim, ko'chada esa qor yog'ayotgan edi, sog'lig'imga zarar yetib qolmasin. "Yandex taxi" ilovasi orqali haydovchi uyimga yaqin kelib qolganini ko'rdim va tezroq harakat qila boshladim. Toza va yangi kiyimlarimni kiydim, xushbo'yliklarni septim va ko'chaga chiqdim. Ko'chada juda go'zal qor yog'ayotgan edi lekin men buyurtma qilgan taksidan darak yo'q, ammo ilovada; haydovchi yetib keldi deb ko'rsatayotgan edi. Ilovaga kirib qarasam haydovchi boshqa ko'chada turibtdi, ajablandim va u turgan ko'cha tomon yura boshladim. Bir och jahlim chiqti chunki sovuq qotishni boshlagan edim. O'sha haydovchi turgan ko'chaga kirdim lekin uni topa olmadim. Uch marotaba qo'ng'iroq qildim, javob bermadi, yetmaganida buyurtmani bekor qilgani ham yo'q. 8000 so'mlik buyurtma allaqachon 12500 so'm bo'lgan edi, ya'ni u haydovchi kutgani uchun pul qo'shilayotgan edi. Noiloj buyurtmani bekor qildim, yetmaganiga 8000 so'm jarima ham to'ladim. Mayli hammasi yaxshilikka dedim-da ilovaga kirib boshqa bir mashina chaqirdim,

alhamdulillah tezda bir haydovchi qabul qildi va taxminan 5 daqiqa ichida yetib keldim. Bu vaqtga qadar men sovuqda va qor ostida turdim. Haydovchi keldi va belgilangan manzil tomon harakatlana boshladik. Haydovchi Chirchiq shahridan emas ekan lekin 2016 yilda bir marotaba kelgan ekan. Chirchiq shahrida "Oliy tank-qo'mondon muhandislik" bilim yurti mavjud, haydovchi ham shu bilim yurtiga imtihon topshirish maqsadida kelgan ekan. Suhbatimizni boya meni jahlimni chiqargan holatga burdim; sizdan oldingi haydovchi bilan g'alati hodisa yuz berdi deb holatni tushuntirib berdim. Haydovchi xotirjamlik bilan internet yaxshi ishlamagani sabab bo'lsa kerak dedi. Haydovchi Chirchiq shahriga mijoz olib kelgan ekan, Toshkentdan. Toshkentga ketmoqchi ekan-ku lekin buyurtmalar faqat Chirchiq shahrining ichiga bo'layotgan ekan. Gapda gap chiqib men masjidga ketayotganimni bildi va xursand bo'ldi, sababi men ham jumaga kirishim kerak edi dedi haydovchi. Bu gapni eshitib chuqur o'yga tomдим, va o'yladim. Boyagi birinchi chaqirgan haydovchim bilan bo'lgan voqea bejizga emas ekanda chunki hozir bu haydovchi men sabab Juma namoziga kiradigan bo'ldi deb o'yladim. Chunki haydovchi shaharga ketish

niyatida edi, soat 12:06 aniq Juma namoziga ulgurmagan bo'lar endi agar Toshkentga yo'l olganida. Bu mulohazamni haydovchiga aytim. U inson ham fikrimga qo'shildi va o'tgan Juma bir mijoz sababli Juma namoziga kira olmagan haqida aytib berdi; Bir mijoz chiqdi o'tgan juma. Qozog'iston chegarasiga, soat 13:00ga yaqinlashayotgan edi, mijozdan so'radim; Juma namoziga yarim soatga kirib chiqsak mayli deb, mijoz; uzr chegaraga tezda borib bu qo'limdagi yukni topshirishim lozim deb javob berdi va shu tarzda Juma namoziga kira olmagan edim deb so'zini tugatdi. Yo'lda tirbandlik bo'lgani sababdan bermalol suhbatlashishga vaqt topayotgan edik. Juma namozi haqida suhbatimiz davom etim. Haydovchi: o'zi har doim Juma namoziga kirishga harakat qilaman, mening sheriklarim ham shunaqa deya gapida davom etdi. Juma kuni juda barakali kun, men va mening barcha sheriklarim aynan Juma kuni ko'proq pul topishadi. Bir soat yoki undan ham ko'p vaqt masjidda bo'lamiz lekin qolgan kunlarga qaraganda ko'proq pul topamiz. Avvallari pul ko'proq topishim kerak deb kirmas edim lekin hozir shu narsalarni tushunib yetim dedi haydovchi. Bu gaplarni eshitib juda mazza qildim

va Allohga hamd aytdim. Haydovchi mendan pul olmasligini aytdi, Alloh rozi bo'lsin lekin ilovam mening karta raqamimga ulangani sabab allaqachon yo'l haqqi yechib olingan edi. Haydovchi gapida davom etdi: avvallari ko'p ko'rar edim, men tomonlarda Juma kuni ba'zi haydovchilar ya'ni taksistlar Juma kuni bepul deb qo'yishar edi, o'sha payti men ham ko'ngilimga tugib qo'ygan edim, agar mashina olsam men ham Juma kuni bepulga mijozlarni manziliga eltib qo'yaman deb. Lekin sizdan ham olmoqchi emas edim lekin Kartez ulangan ekanda deb gapini tugatdi. Bu gaplarni eshitib yanada xursand bo'ldim va dedim: eng muhimi shunaqa niyatiz bo'lgan ekan-ku ajrini olasiz Insha'Alloh deb niyatning muhimligi haqida suhbatimiz davom etdi. Masjidga ham kelib qolgan edik, mashina qo'yishga joy topdik va joylashtirdik. Haydovchiga rahmat aytdim va juda yaxshi kayfiyatda hayirlashdik.

Ko'p holatlarda ibodatlar vaqtimizni olayotgandek tuyuladi, albatta bu shaytonning ishi. Bir joyda o'qib qolgan edim bir necha yillar avval: "Namozni tez o'qib, qisqa suralar o'qib vaqtimni tejayapman deb o'ylama.

Bu ishing bilan qolgan vaqtingning barakasini yo'qotyapsan". Kunlik ibodatlarga uzog'i bilan bir soat vaqtimiz ketar ekan. Alloh bizga bir kunda 24 soat berdi, nega endi shu bir soatini Allohga ajrata olmaymiz !?

Namozni Allohni eslash uchun o'qiymiz. Namoz bizni Alloh bilan aloqalarimizni saqlab mustahkamlab turuvchi vositadir. Alloh bizga namozni besh mahal farz qilgani bejizga emas ekan. Inson bu dunyo ishlari sabab Allohni eslashni unutishi hech gap emas. Namoz esa Allohni eslashimizga yordam beradi. Boyagi haydovchi akamiz ham ibodat vaqtga va risqqa baraka berishini o'z hayotida ko'rdi va bunga iymoni komil bo'ldi. Alloh o'z bandalariga doim ishoralar, xabarlar yuborib turadi lekin buni faqat tafakkur sohiblarigina ilg'ay oladilar. Hammamiz hayotimizga qaraydigan bo'lsak, ishora-yu-habarlarga to'lib yotipdi, ularni tafakkur qilish qoldi xalos.

Namozini boshlab, uni o'z vaqtida o'qiyotgan inson insha'Alloh qolgan ibodatlarini ham o'z joyiga qo'yib oladi.

Benamoz

*Alloh seni besh vaqt kutar,
Seni esa g'aflat yutar.
Iymon esa motam tutar,
Kunlarning - chi ? Shunday o'tar.*

*Shayton seni rosa aldar,
Nafsinga qul qilib haydar.
O'zi esa chettan poylar,
Jannat tomon ketar yòllar.*

*Azonlarga quloq tutmas,
Namozlarin ado etmas.
Ishlarini bitirsa bas,
Alloh uchun u yaxshamas.*

Himmati pastlar

Ishga o'z vaqtidan sal avval borgan edim ertalab, bir ayol erining mashinasini garajdan ko'chaga olib chiqayotgan edi, sal xato haydab mashinaning bir balonini ariqqa tushirib qo'ydi. Eri shunaqa urishyapdi endi, ichimda "temir-ku" deyapman. O'zining hotini yetmaganiga. Moshinasini ozgina qirilgani uchun xotiniga shunaqa muomila qilgan insoni "Erkak" desa bo'larmikan...

Insonning "Himmati" qancha past bo'lsa shunaqa arzimagan narsalarga siqilib, asab bo'lib yuraveradi. Alloh himmatimizni ziyoda qilsin. Bu dunyoni arzimagan matohlari, bir inson ko'nglini og'ritishga, kayfiyatini tushirishga arzirmikan-a!? Arzimagan narsalar sabab yaqin insonlarimizni qalbiga ozor berib qo'yamiz. Buni Ota-Ona va farzand munosabatida ham ko'rishimiz mumkin. Ota yoki Ona farzandini urishayotganini sababiga qarasak, shunchalik arzimas "мелочь" narsa bo'ladiki, bu narsalar farzandiga yomon nazar bilan qarashga ham arzimaydi !

Yoshligimizda juda ko'p guvohi bo'lganmiz, nafaqat guvohi balki ishtirokchisi ham aylanganmiz: ehtiyotkorsizlik sabab ma'lum bir oshxona jihozini sindirib qo'yganmiz, natijada bitta kaltak yoki so'kishga a'zo bo'lib qo'yganmiz. Bitta oshxonadagi piyola bo'lsin, likopcha bo'lsin farqi yo'q, bularning bittasi ham insoning qalbini og'ritishga arzimas narsalar deb hisobliman. Bu barcha dunyo matoqlaridan, insonning ko'ngli va qalbi muhimroq man uchun. Moshinalar pacha bo'lib yo'q bo'lib ketmaydimi, telefonlar sinib parcha-parcha bo'lib ketmaydimi, muhimi u insoning joni sog' bo'lsa bo'ldi.

G'azabni shunchaki tushunishga almashtirishimiz kerak, bo'ldi. Insonlarga ko'p narsa kerakmas o'zi, shunchaki ularni tushunsak bo'ldi.

Ko'rinishga aldanmang

Bir kuni kasalxonadan chiqdim, uyga ketishim kerak edi, katta yo'lga chiqib taksi to'xtata boshladim. Matiz to'xtadi va kelishib o'tirdim. U inson ko'rinishidan juda taqvoli insonga o'xshar edi, tilida Allohni zikr qilib qo'yar edi ora-orada. Soqol qo'ygan edi adashmasam. Xullas u insonga nisbatan gumonim ijobiy edi, lekin bu uzoqqa bormadi. Ma'lum bir muddatdan keyin haydovchi qo'lga nos oldi. Shu lahzada u insonga nisbatan hurmatim juda tushib ketdi, yetmaganiga yo'lda boshqa mashinalar bilan muammo bo'ldi va haydovchini qanaqa so'kinishlarni bilishini bilib oldim.

Toshkent ko'chalaridan birida ketayotgan edim, bekatda bir aka turgan ekanlar. Kelishdan, yaxshi kiyinib olgan va soqollarini tartiblab qo'ygan. Viqor bilan turipdilar. Bir ozdan so'ng tamakini qo'lga oldi va chaka boshladi.

Har birimizda shunga o'xshash vaziyatlar juda ko'p bo'lgan. Bir insoni ko'ramiz, juda taqvoli, diyonatli insonga oxshaydi. Ba'zi yana qaytaraman ba'zi hijobdagi opa-singillarimiz bilan ham shu holat, ko'rib yoqa ushlaysiz.

Kelinglar shu masalani chuqurroq tafakkur qilsak. Ko'p insonlar o'ylashar ekan: Agar bir inson namoz o'qisa u yolg'on gapirmaydi, agar u soqol qo'ygan bo'lsa zino qilmaydi, agar u hijobda bo'lsa musiqa eshitmaydi va shunga o'xshash fikrlar.

Insonlar, avval musulmon inson kim, shu savolga javob topib olaylik. Haqiqiy mo'min namoz o'qigan inson emas, soqol qo'ygan inson emas, haj qilgan inson emas !

Haqiqiy mo'min tilidan va qo'lidan boshqalar omonda bo'lgan kishidir !

Dinimizning dalillari va ramzlari bor: Namoz, ro'za, haj, hijob, soqol va boshqalar, bularning hammasi dinimizning ramzlari dalillari emas ! Insonlar odatda ramzlarni dalil qilib olishadi bu esa xato. Hech qachon insonga undagi dinimizning ramzlariga qarab baho bermang.

O'zbekiston respublikasining ham ramzlari mavjud to'g'rimi; bayrog'i, gerbi, madhiyasi. Keling shulardan misol keltirib tushuntirishga harakat qilaman.

Masalan: agar biz O'zbekiston bayrog'ini ko'radigan bo'lsak bu ramz O'zbekistonni ifoda etadi to'rimi? Ana endi tasavvur qiling bir Amerikaning fuqarosi O'zbekiston bayrog'ini qo'lida ushlab turibdi. Savol: O'zbek yoki O'zbekistonlik bo'lib qoldimi ? Yo'q, chunki O'zbek bo'lish uchun bayroqning o'zi yetarli emas ! U O'zbekistonda tug'ilgan, ma'lum bir muddat muqum shu yerda yashagan bo'lishi lozim.

Madhiyani olaylik: bir Rossiya fuqorosi baland ovozga O'zbekiston madhiyasini kuylayapti, o'sha savol bu ishi bilan u O'zbekistonlik bo'lib qoldimi ? Bular shunchaki ramzlar !

Namoz, saqol, hijob - bular o'ta muhim ishlar ya'ni qilishimiz farz va sunnat bo'lgan ishlar lekin dalillar emas.

Niyatning ahamiyati

2020-yil, IT akademiyada o'qib yurgan davrlarim. Uyda edim, o'qishga ketishim kerak Toshkentga, adashmasam yoz oylari kunlar juda issiq, men yo'lda bo'ladigan paytim ayi kun isigan paytga to'g'ri kelar edi. Yo'lga tayorlana boshladim va niyat qildim; Allohim shu shahar markazigacha mashina chiqsin deb, bir ozdan so'ng o'ylab qoldim nega mukammal niyat qilmadim deb va yana qayta niyat qildim bu gal aynan Toshkentga mashinalar ketadigan joyga mashinada yetib olishni Allohdan so'radim va niyatimni yangilab qo'ydim. Kiyimlarimni kirib bo'lgach ko'chaga chiqdim, bir oz vaqt o'tar o'tmas mahalladagi bir akamiz mashinasida kelib to'xtadi. Alhamdulillah dedim niyatim xolis ekan shahar markazigachan yetib olaman endi. Qo'shni akam bilan suhbat qurib ketdik gapdan gap chiqib o'zi qayerga ketayotganlarini so'radim, ma'lum bo'lishicha qo'shni akam aynan Toshkentga mashinalar jo'naydigan joyga ketayotgan ekanlar. Alhamdulillah dedim va qilgan niyatimni va bu niyat amalga oshganini qoshni akamga ham aytim. U inson ham niyatning kuchini ta'kidlab o'tdilar.

Niyatning muhimligini Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam bir hadislari orqali aytib o'tganlar, bu hadis Imom Buxoriy hazratlarining "Sahihul Buhoriy" Hadis kitoblaridagi birinchi hadisdir: "Amallar niyatga bog'liq"

Darhaqiqat, niyatning muhimligini hayotimizning har lahzasida ko'rsak bo'ladi. Masalan: agar namozni niyatsiz boshlaydigan bo'lsak u namoz qabul bo'lmaydi, ya'ni niyat yo'qmi demak qabul ham yo'q.

Tasavvur qiling yo'lda ketyapsiz, to'satdan bir yoshi katta ayol bolam keling qo'limdagi yuklarni ko'tarishib yuboring dedi, siz darhol yuklarni ko'tarishdingiz. Savol siz bu ishingizga savob olasizmi yoki yo'q? Savob olmaysiz, sabab siz niyat qilmadingiz.

Bu masalada yuqorida hikoyasini aytib berganim haydovchi ya'ni juma namoziga birga borgan haydovchi bilan ham suhbat qurgan edik. Esingizda bo'lsa u inson menda pul olmoqchi emas edi lekin kartam ulangani sabab pul yechib olingan edi. Shu holatda haydovchi savobni

qo'lga kiritadilar, chunki u inson niyat qilgan edi avvaldan. Ya'ni Alloh taolo shu qadar mehribonki biz tasavvur qila olmaydigan darajada;

"Agar bir banda yaxshilik qilishni niyat qilsa-yu lekin ma'lum bir sababga ko'ra uni qila olmasa, Alloh bu bandasini niyati sababdan shu yaxshilikni qildi deb hisoblaydi va farishtalar bir savob yozishadi. Agar bir banda yaxshilik uchun niyat qilsa va shu ishni bajarsa unga o'ndan yettiyuzgacha savob yoziladi. Agar bir banda yomonlik qilishni niyat qilsa-yu lekin u ishni qilmasa, unga hech nima yozilmaydi. Agar bir banda bir yomonlikni niyat qilib, o'sha yomonlikni qilsa farishtalar unga faqat 1ta gunoh yozishadi", masha'Alloh! Allohim sendan mehriboni yo'q !

Niyat haqida tafakkur qilishda davom etamiz. Bir Ustozimizdan bir hikoya eshitgan edim; Ustoz va shogird suhbatlashib o'tirishgan ekan, birdan eshik taqillab qolipti. Ustoz shogirdidan eshikni ochishini so'rapti. Shogird borib eshigni ochibti, qarasa hech kim yo'q, qaytib kelib joyiga o'tiribti. Shu payt Ustoz shogirdida so'rabti:

Hozir eshikni ochding to'g'rimi? Ha Ustoz ochdim. Ustoz so'zida davom etibdi: shu eshikni ochishdan avval niyat qildingmi? Yo'q Ustoz, eshik ochishda ham niyat qilinadimi? Ustoz shogirtiga qarab tabassum qilpti va javob beribdi: Shogirtim men eshikni kamida oltimishta niyat qilmay turib ochmagan bo'lar edim; agar eshikni taqillatayotgan inson och bo'lsa uning qornini to'ydirar edim, agar kambag'al bo'lsa moliyaviy yordam qilardim, agar mazlum bo'lsa zulimda qutqarar edim, agar zulumkor bo'lsa uni insofga chaqirar edim, agar qarz so' rasa qarz berar edim. Ustozi yana bir qancha niyatlarni aytibdi. Shogirdim mana shu niyatlardan so'ng eshikni ochardim, agar eshik oldida hech kim bo'lmasa ham barcha qilgan niyatlarimga savob olar edim deb gapini yakunlagan ekan.

Savol tug'ilishi mumkin, oltimishda niyyat qilgunicha eshikni taqillatgan inson ketib qoladi-ku degan. Niyat bu o'tirib olib, qog'oz-ruchka qilib yozib o'tiriladigan narsa emas. Niyat insoning qalbidan o'tuvchi narsadir.

Yana misol keltiradigan bo'lsam, shu kitobni olaylik;

Bu kitobni nima uchun yozishni niyat qilganim juda muhimdir, sababi "Amallar niyatga qarab bo'ladi", bizga bu kitob yoki savob yoki gunoh olib kelishi mumkun. Agar bu kitob insonlarga maqtanish, yani riyo uchun yozilayotgan bo'lsa bu katta gunohdir, astag'firulloh. Agar bu kitobni Allohning roziligi uchun, ya'ni insonlarni tafakkur qilishga, ilm olishga undash niyatida yozayotgan bo'lsak, insha'Alloh niyatimiz ham shu, ajru-savobidan umidvormiz !

Niyatni yangilash

Siz azizlar bilan avvalgi satirlarimizda niyatning ahamiyati haqida gaplashgan bo'ldik, shu qatorda niyatni yangilab turish borasida ham bir og'iz eslatib o'tishni lozim topdik.

Bir kuni "YouTube" orqali bir suhbatni eshitim, u suhbatda Ustozimiz "Kolba" ta'lim dargohi asoschisi Doniyor aka niyatni yangilash haqida juda mazmunli gaplarni gapirgan edilar. Shu suhbatdan so'ng, har kuni ishga borib o'zimning honamga kirar ekanman niyatimni yangilashga odatlanib oldim.

Ustoz sifatida dars berar ekanmiz, niyatimizni yangilashimiz biz uchun juda muhim va ahamiyati katta ish edi, chunki Shayton bor, nafsimiz bor doim bizni asil niyatimizda chalg'itadi. Ustozlik qilar ekanmiz, ba'zan shayton hayolga juda yomon ishlarni olib keladi. Darsni huddi riyo uchun, ya'ni insonlar bizni Ustoz deyishlari uchun, martaba uchun, yoki insonlar orasida tanilish uchun berayotkandek tuyuladi, astag'firulloh.

Shu sabab har darsdan oldin, nima uchun dars berayotganimni o'ylab niyat qilib olar edim. Bu nafaqat Ustozlikda balki har bir ishda o'ta muhim narsadir. Siz azizlarga ham tavsiyam shuki har bir ish oldidan, u ishni nima uchun qilayotganingizni yaxshilab tafakkur qilib, niyat qilib oling!

Hattoki kitob o'qishdan ham avval niyatingizni yangilang !

"Bu kitobni o'qishimdan maqsad Allohning roziligini topish, chunki Allohning roziligi ilm bilan topiladi, niyatim ilm olish va amal qilish, amal qilganlarimni boshqalarga ham o'rgatish"

Toylarimiz haqida o'ylarimiz

To'ylarni unchalik yoqtirmayman, juda yaqin insonimni to'yi bo'lsa borishim mumkun. Shu kunlardagi to'ylarni ko'radigan bo'lsak, deyarli barchasi insonlar ko'zi uchun yani riyo uchun qilinmoqda. Hamma to'y biladi biz ham qilishimiz kerak. Aynan ikkiyuzta odam chaqirishimiz kerak. Ikki xildagi taom, ham bir dasturxonda besh xil salad va yana shunga oxshash masalalar. Bularning barchasi riyo uchun. Kortej gaplashish kerak, kamida beshta chet el mashinalari bo'lishi lozim chunki odamlar shunaqa qilishyapti hozir. To'yda to'rtta kamerachi, ikkita suratga oluvchi bo'lishi kerak. Hullas bir tinga qimmat narsalar.

Yaqinda bir akamizda eshitgan edim, uylanganlariga to'rt yildan oshti lekin hali bir marotaba ham to'yini ko'rmaptilar. Bu bir misol halos bunga oxshash holatlar juda ko'p.

Shu joyda Riyo va suma haqaida aytib o'tsam degandim. Bu so'zlarni ko'p eshitamiz, ko'p qulog'imizga chalinadi. Lekin hammamiz ham bu so'zlarning asl manosini bilmaymiz.

Riyo - sodda qilib tushuntiradigan bo'lsam insonlar ko'rishi uchun biron bir amalni qilish.

Suma - insonlar eshitsin deb biror amal qilish.

Riyo shirk hisoblanadi! (Tasavvufda) Chunki biz har bir amalni Allohning roziligi uchun qilishimiz lozim, lekin riyo qilayotgan inson kim uchun amal qilyapti? Insonlar uchun, demak u Allohga shirk keltirayotgan bo'ladi !

To'y hammaga ham baxt olib kelmasligi haqida o'ylab ko'rgamisiz? Ayniqsa u to'yda mast qiluvchi ichimliklar bo'lsa! Ko'p guvohi bo'lamiz, ba'zi insonlar to'y payti spirtlik ichimlik ichib olib hammaning kayfiyatini buzadi, ayniqsa o'z oila a'zolarini. Shu mast insonning farzandi shu to'ydan baxtli deb hisoblaysizmi ?

To'y erkak kishi uchun emas! Haqiqiy erkak ichmaydi, rasq tushmaydi va musiqa eshitmaydi. To'y esa bu narsalar siz o'tmaydi.

To'ydan maqsad ikki yosh turmush qurganini odamlarga e'lon qilishdir.

Mani fikrimcha, to'yga ketayotgan keraksiz harajatlarni ikki yoshning kelajak hayotlari uchun investitsiya qilish lozim. Buning turlari ko'p, masalan yoshlarga chet elga sayohat qilishlariga sharoit qilib berish, ularning qiziqishlariga qarab ularga turli xil kurslar hadiya qilish; oila munosabatlari bo'yicha, psixalogiya, turli xil tillar va boshqalar. Mana bularni orzu havas desa bo'ladi, beshyuz kishilik to'yni emas!

Yetmaganiga, o'z puliga qilsa ham mayli edi, qarz olib shu to'yni o'tkazishadi, afsus! To'ydan keyin esa bu qarzni to'lash bilan umrlari o'tadi.

Insonlarning dunyo qarashi kunda kunda o'zgatib, yaxshi tomonga rivojlanmoqda alhamdulillah.

Bomdod namozi

Baz'an bomdod namoziga "Будильник" qo'yib ham uyg'ona olmaymiz. Endi bizda savol tug'uladi, o'tmishda insonlar qanday uyg'onishgan? Kòp eshitganmiz, ularni "iymon"lari uyg'otgan degan gapni. Kundan kunga shu gapning naqadar haq gap ekanligini tushunib bormoqdaman. Eng muxumi maqsad va ishonch. Bugun ham, qòyilgan "Будильник"dan taxminan 20 daqiqa oldin uyg'ondim, lekin soat 00:00dan so'ng uxlagan edim.

Ahamaiyat beradigan bo'lsak, agar ertaga erta tongda biror joyda muhim ishla bilan borishimiz lozim bo'lsa nima bo'gan taqdirda ham uyg'onamiz.

Bu mavzu haqida butun boshli kitoblar ham mavjud, lekin ozgina bo'lsa ham bu haqida fikr bildirib ketishni to'g'ri deb topdik.

Keling avvalo nega biz bomdod namoziga uyg'ona olmaymiz? Shu savoldan boshlasak. Bu savolga juda ham ko'p javoblar va sabablar mavjud.

1. Niyat qilmaslik. Avvalgi satirlarimizda niyatning ahamiyatini ko'rib chiqqan bo'lgandik. Bu yerda ham huddi shu holat, agar uxlashdan oldin inson bomdod namoziga turishni niyat qilmasa, Allohdan so'ramasa katta extimol bilan uyg'ona olmaydi !

2. Kech uxlash. Tabiiy, kech uxlagan inson kech turadi. Soat tungi 1:00da uxlab, soat 4:00 uyg'onishni niyat qilish kulguli.

3. Bomdod o'qiydigan sherigining yo'qligi. Oilada faqat siz namoz o'qisangiz bu qiyin. Yoki namozxon do'stlarning yo'qligi.

4. Bomdod namozining ahamiyatini his qilmaslik.

Bomdodga uyg'onishning eng zo'r usuli bu solih do'stning bo'lishidir.

Har kuni ertalab shayton insoning boshiga uch tugun tugar ekan, agar u inson erta tongda uyg'onsa va uyg'ongan zahoti Allohni zikr qilsa bitta tugun yechilarkan. Agar borib tahorat olasa ikkinchi tugun. Agar bomdod namozini o'qiydigan bo'lsa uchinchi tugun yechilar ekan.

Shundan so'ng insonning kuni yaxshi o'tar ekan. Ko'p insonlar kunidan shikoyat qilishadi, javobi o'zimizda buning barchasini.

Allohim barchamizni tongi ibodatlarni davomiylik ila a'do etishimizni nasib ayla!

Jundab ibn Sufyon roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim bomdod namozini o'qisa, u kishi Allohning ahdi va omonidadir. Ey odam bolasi, qaragin! Alloh seni hargiz ahdidan biror narsani zoye qilgan holda topmasin", dedilar (Imom Muslim rivoyati).

"Musulmonlar bomdod namoziga uxlab yotgan bir paytda, g'ayri dinlar ko'chada kuchugi bilan sayr qilayotgani achinarli..."

Shukr qilish

To'nkin - sochin dasturxonni ko'radigan bo'lsam ko'zimga yosh kelay deydi! Loyiq bo'lmasakda Alloh bizga bu ne'matlarni ato qilyapti, alhamdulillah!

Umar roziyallohu anhu Halifa bo'lib turgan paytlarida, yordachisi bir taom olib keladi, o'sha payt Umar roziyallohu anhu bir gap aytadila:

"Allohim sen bu ne'matlarni Payg'ambaring - Rosulinga bermading, holbuki u zod mendanda mahbubroq hamda sharafliroq edi, sen bu ne'matlarni Abu Bakirga ham bermading, holbuki u zod mendanda mahbubroq, sharafliroq edi, lekin menga berding, sendan mol - dunyoga muhabbat qo'yishdan panoh so'rayman".

Hozirgi kundagi dasturxonlarimiz juda go'zal! Yo'q narsaning o'zi yo'q, meva deysizmi, shirinlik deysizmi barchasi bor, lekin dasturxon atrofida yig'ilgan insonlar esa...

Saodat asrida, dasturxonda uzog'i xurmo va suv bo'lgan, lekin dasturxon atrofida yig'ilgan insonlar insoniyat tarixidagi eng buyuklari bo'lishgan !

O'zi ahamiyat beradigan bo'lsak, qachon biz Alloh bergan ne'matlarini qadriga yetmasak, shukrini ado qilmasak u ne'matlarni Alloh bizdan birin-кетин olishni boshlidi.

Buni teskarisi, qachon Alloh bergan ne'matlarni qadirlasak va shukr qilsak u ne'matlarimiz ziyoda bo'lishni boshlaydi.

Shu sababdan ham Alloh bergan har bir ne'matni qadriga yetishga va shukrini ado qilishga harakat qilamiz. Allohga va shu ne'matlarni bizga kelishiga sababchi bo'gan insonlarga raxmat aytamiz, u ne'mat hoh katta bo'lsin hoh kichik...

Eng baxtli inson - shukr qilgan va hozirgi holatidan rozi bo'lgan insondir. (Rozilik - bundanda yaxshisiga harakat qilmaslik degani emas)

Hozirgi kunimizda odamlar avval nolib so'ngra shukr qilishadi. Misol uchun shu moshinam gazda yuradi, yaxshi tortmayapti negadir, matorida ham ovoz chiqyapti, e mayli shunisiga ham shukr. Yoki shu telefonim juda sekin ishlayapti, hotirasining hajmi kichik, e mayli Allohga shukr shunisiga ham.

Alloh taolo bandalariga shu qadar ko‘p ne‘matlar berganki, ularni sanab tugatib bo‘lmaydi. Bu haqda Alloh taolo Qur’oni Karimda bunday deb marhamat qilgan: “Agar Allohning ne‘matlarini sanasangizlar, sanog‘iga yeta olmaysizlar. Albatta, Alloh o‘ta mag‘firatli va rahmli zotdir” ("Nahl" surasi, 18-oyat).

"Ne'matga shukr qilish o'sha ne'matning ziyoda bo'lishiga sabab bo'ladi"

Tilanchilik

Har juma kuni namozdan chiqayotganimizda tilanchilarga ko'zimiz tushadi, ba'zi insonlar ularga pul berishadi. Ularga pul berish joiz emas shu narsani unutmanglar! Ular bir kunlik ovqatiga yetadigan puldan tashqari yana tilanchilik qilsalar bu ular uchun haromdir. Undan ko'ra masjid exson qutilariga shu pulni tashlaganlaringiz afzalroqdir. Chunki u yerda turgan tilanchilarning deyarli barchalari buni kasb qilib olishgan.

Tavsiya: agar sizing oldingizga yosh bola pul so'rab tilanib kelsa, rahmingiz kelib unga pul bermang chunki u pulni barbir u yosh bolakay ishlata olmaydi. Nima, o'ylaysizlarki bu bolakay bu pullarni kattalariga olib borib bergach, ular raxmat aytib shirinlik olib berishadi, yo'q afsus bunday bo'lmaydi. Ularga shirinlik yoki saqich berish kerak, chunki bularni u shu yerning o'zida yeydi. Shu sabab ko'chaga bir ish bilan ketayotganingizda yo'lingizdan tilanchi bola chiqishini taxmin qilsangiz, unga biron nima olib oling!

"Влажная салфетка"

Salfetka sotuvchilari bilan tilanchilarni adashtirmang! Xalqimiz orasida bu holat bor salfetka sotuvchi insonga tilanchiga qilgandek muomila qilishadi, afsuski. Ular sizdan shunchaki pul so'rayotganlari yo'q, bir foydali mahsulot evaziga so'rashyapti. Ustiga qo'yilgan bo'lsa ikkiming so'm pul qo'yilgandir. Bu insonlarni juda hurmat qilamiz !

Kerak bo'lmasa ham, sotib oluvchilardan bo'l !

O'g'rilar

Alloh taolo bu dunyoda turli xildagi kasblarni yaratdi, insonlar shu kasblari orqasidan Alloh bergan risqni topishadi. Shu kasblar orasida o'g'irlik ham bor, hohlaymizmi yo'qmi bor. Hech shu kasb haqida tafakkur qilib ko'rganmisiz ?

O'g'rilar juda ko'p kasb egalarini ish bilan tamillar ekan. Misol uchun, agar o'grilar bo'lamaganida kamera kerak bo'lmas edi. Kamera ishlab chiqaradigan korxona, ularni sotadigan do'konlar, ularni o'rnatadigan insonlar bo'lmas edi. Quluf yasaydiganlar, panjara yasaydiganlar ham.

Yani Nima demoqchiman, Alloh bu dunyoni shunchalar mukammal qilib yaratganki, inson hayratda qolmaslikdan boshqa iloj topa olmaydi.

Dunyodagi har bir narsa qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'lgan. Mukammal bir muvozanat va reja qurilgan olamda.

Eng yomoni nima bilasizmi ?

*Kengligi osmonu - yerlardan ham keng
bo'lgan Jannatda, sizga joy bo'lmasligi...*

Oilaviy hayot

Oilaviy hayot odatda to'rt bosqichdan o'tadi.

1-bosqich: Asal oyi bosqichi.

Bu bosqichda to'ydan keyingi xursandchilikka boy bo'ladi, taxminan bir necha oy davom etadi.

Bu bosqich 3 qismga bo'linadi:

1-qism: Juftini o'zi orzu qilgan qolipda ko'rish.

Afsuski bu qismda yoshlar bir birini aslini emas balki orzusidagi inson timsolida ko'radilar. Masalan qiz, sabrli, kuchli yigitga turmushga chiqishni hohlagan. Yigit esa, chiroyli, aqlli qizga uylanishni xohlagan. Ikkalasi ham ana shunday odam bilan turmush qurishni o'ylagan. Toydan so'ng har ikkalasi bir biridan ijobiy so'z bilan shu xislatlarini qidirganlari uchun, bu sifatlar unda bordek tuyilaveradi. O'sha narsani qidirgani uchun o'sha narsani topaveradi. Ularda men qidirgan inson shu ekan degan xulosa shakllana boshlaydi. Manashu jarayon real insonlarni o'zining tasavvurdagi obrazlarga moslab olish deyiladi. Ular istagan sifatlarning bir ikkitasigina topilishi mumkin lekin odatda real insonlar obrazdagi insonga o'xshashi juda kam uchraydi.

2-qism: Juftidagi ijobiy sifatlarni birinchi marotaba ko'rish.

Tabiiyki har bir insonda bir nechta ijobiy sifatlarni bo'ladi; kidir yaxshi taom pishiradi, kimdir yaxshi tinglovchi. Bu sifatlarni bir birida ko'rgan yoshlarni bir biriga bo'lgan mehri ortadi. Birinchi marotaba yaxshi telefon olganingizda uning ichidagi turli xil ijobiy funksiyalarni ko'rib qanaqa hursand bo'lsangiz, bu holatda ham huddi shunaqa.

3-qism: (Expectation), yani kelajakdan nimanidir umid qilish.

Yani juftini chiroyli kulmasligini, yaxshi ovqat pishira olmasligini, ibodatlariga dangasaligini ko'radi va yaxshi bo'lib ketar deb umid qiladi har ikklasi. Bir biridan bazi ijobiy sifatlarini topa olmagach, ha mayli hali vaqt borku deydi har ikklasi. Bu orzular bu qismda uchragan ba'zi kamchiliklarga ko'z yumushda va bu kamchiliklarga qaramasdan ko'tarinki ruhda hayotni davom ettirishga yordam beradi.

1-bosqichda bu ikki yoshdan baxtli odam yo'q, agar tashqi omillar ta'sir qilmasa albatta.

2-bosqich. Zerikish va charchash.

1-qism: Bu bosqichda ikkila taraf ham justi u o'ylagan obrazda emasligini tushunib yetadi boshlaydi va bir biridan hafsalasi pir bo'la boshlaydi.

2-qism: Bir-birida ko'rgan ijobiy sifatlarga ko'nika boshlash. Bir narsani ko'raversangiz uning qadri tushadi. (Ustozimiz aytganlaridek Zam-zam suvi oldida Coca-Cola ichganlarni ko'rganman). ijobiy sifatlari odatiy holga aylanganidan so'ng bunga ahamiyat bermay qo'yishadi.

3-qism: Barcha orzu umidlar so'nadi va endi umrimning oxrigacham shunaqa yashayman degan hulosalar egallaydi. Bir biridan suyunchi kutmay qo'yishadi.

Bu bosqichda qalbgacha jarohat yetadigan ko'p gap so'zlar, ishlar sodir bo'ladi. Hiyanatlar, zino va ajirim ham shu bosqichga to'ri keladi, ming afsus. Bu bosqichda bir birlarining kamchiliklari odatdagida ko'proq ko'rida boshlaydi. Bu yillar davom etishi mumkin. Bu bosqichdan o'tib olmasalar yo ajrashadilar yo butun umr shu hayotda yashab yuradilar.

3-bosqich: Ko'nikish va odatlanish.

Bu bosqichda tomonlar bir birlariga ko'nikib qoladilar. Bir birlarining salbiy odatlariga etibor bermay qo'yadigan bo'ladilar. Hamma oilalar ham muhabbat ustiga qurilmaydi. Bir tom ostida yashashga o'rganib oladilar. Bir birlariga ozor berish yo'qoladi va bir birlarini qadrlay boshlaydilar.

4-bosqich: Stabillik.

Bu bosqichda ular bir birlarisiz yashay olmaydigan, bir birlariga qattiq o'rganib qolgan bo'ladilar. Ularda juda ko'p shirin voqealar toplanib qolgan bo'ladi. Ular bir birlarini sinagan, bir birlarini qay holatda o'zini qanday tutishigacham biladigan va buni qabul qilgan bo'ladilar.

Endi sizda tabiiy savol tug'ilishi mumkun, sen bu narsalarni qayerdan bilasan hali uylanmagan bo'lsang, yoshing ham katta emas endigina 21 yoshdasan. O'rinli savol, unday bo'lsa javobni eshiting: to'g'ri mening yoshim katta emas, bu ilmini bilish uchun yoshning ahamiyati yo'q qancha yosh paytidan bu ilmlarni o'rganishni boshlasa shuncha oilada saodat topadi.

Bu kitobda yozayotgan fikrlarimning deyarli barchasi Ustozlarimizdan eshitgan, ular bizga o'rgangan ilmlaridir, alhamdulillah ilimli, hayotiy tajribaga ega, turli xil mavzularda o'z qarashlariga ega Ustozlarimiz juda ko'p! Oilaviy ilmlarga ega bo'lish uchun "ikka marta uylanib, uch marta ajrashish" shart emas !

Ahmoq odam bilan Aqilli odami farqi bo'ladi. Ahmoq bir hatoga yo'l qo'yib adabini yeb, o'z hatosidan dars oladi. Aqilli odam esa o'sha ahmoqni hatosidan dars olib qo'yaveradi. Alloh barjamizning oilalarimizga saodat ato etsin!

"Har bir inson oila muhitida kamolga yetar ekan, oilaning barqarorligi, mustahkamligi va farovonligi jamiyat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridandir"

*"Bir insonni qattiq yaxshi ko'rma, bir kun kelib
dushmaninga aylanishi bor.*

*Bir eshikni qattiq yopma, bir kun kelib u eshikni
taqillatishing bor.*

*Bir insonga qattiq ko'ngil qo'yma, Alloh taqdir
qilmagan bo'lsa, ajralishing bor"*

Kitob o'qi

Kitob o'qish, ilm olishdan maqsad "Olim" bo'lib ketish emas ! Bizning maqsadlar:

- Allohni tanish
- Hayotimizni go'zallashtirish
- Hayotimizga mazmun olib kirish
- Yonimizdagi insonlar uchun foydali biri bo'lish

Har qanday ilm oxiri barbir Allohni tanitadi...

Umrida bir dona ham kitob o'qimagan inson bilan suhbatlashish qanaqa bo'lar ekan-a? Bazi insonlar aytadiki: "Men kitob o'qimayman, men hayotdan tajriba olaman". To'g'ri lekin bu turdagi insonlar faqat o'zi bilan sodir bo'lgan ishlardan tajriba olishadi. Kitob o'qigan insonlar esa butun insoniyatning tajribasini oladi. Kitob o'qishni yoqtirmaydigan insonlar hech bo'lmaganida, kitob o'qiydigan insonlar suhbatida bo'lishi kerak. Ba'zi insonlar bilan 15 soniya ham gaplashib tura olmaysan, ba'zilar bilan esa butun umr gaplashishni hohlaysan. Inson gapirayotgan gaplarning mazmunli bo'lishi, insonlar u inson suhbatini tomon oshiqtirar ekan.

Bu kabi insonlar suhbatlari "yuqumli" bo'ladi, bir muddat shu kabi davralarda qatnashgan inson ham mazmunli gapiradigan insonga aylanadi ! Kitobni aqilli biri bo'lish, baxslashish uchun emas balki hayotni go'zallashtirish uchun o'qing !

"O'qi" kalimasi bilan g'ordan chiqdik, hozir esa o'qimayotganimiz uchun yana g'orga qaytyapmiz"

Yana bir mulohaza, oldin bilim olish man'basi faqat kitob bo'lgan shu sababdan kitob o'qi kalimasi ko'p qaytarilgan. "Kitob o'qi" kalimasi 'Ilm ol' deganidir. Bugungi kunimizda bilim olish uchun juda ham ko'p man'balar mavjud. Shu sabab bu man'bani o'zingiz tanlang, lekin ilmning negzi bo'lgan kitobdan uzoqlashmang !

*"Kitob parashut kabidir, ochilmasa
foйда bermaydi)"*

Ayb qidirish

Shu kunlarda insonlar orasida tarqalgan bir g'araz illat bor, bu ham bo'lsa insonlardan ayb, nuqson, kamchilik qidirish. Bir Ustozimiz aytgan edilar: Inson ko'zi o'zini ko'rmaydi deb. Qachonki inson o'zini unutsa, boshqalarni muhokama qila boshlaydi. Ulardan kamchilik, ayb qidiradi lekin o'zining holati haqida habari yo'q. Agar bo'lganida edi o'zini isloh qilishdan boshqa ish bilan shug'ullanmagan bo'lar endi. O'zing botqoqlikda bo'lib turib boshqalarga loy otish bilan nimani o'zgartirmochi bo'lasan? Ularda tekkan ozgina loyni gapirasanmi? Hech kim farishta emas! Buni da'vo ham qilmaydim. Har bir insonda o'ziga yarasha kamchiliklari, nuqsonlari mavjud va bu tabiiy. Sen ko'rayotgan bir yoki ikki nuqsoni bordir lekin sen ko'rishni istamayotgan qanchadan qancha yaxshi fazilatlari bor! Kibring sabab bularni qabul qila olmaysan halos!

"Kimdur sizdan hato qidirayotgan bo'lsa, u ko'r bo'lsa ham sizdan hato topadi..."

Baxt

Baxt haqida ko'p tafakkur qilganman, shu sabab bu mavzu haqida ham o'z fikr va mulohazalarim va o'qiganlarimni bildirib o'tishni lozim toptim.

It uchun egasi unga ovqat berishi, uni erkalashi baxt, lekin bo'ri uchun bu do'zox kabidir. Chunki bo'ri o'rmonda yashab, ov qilmog'i u uchun baxtdir.

To'vuqlarga egasi don berishi, ularni parvarish qilishi baxt, lekin burgut uchun bu haqoratlanish. Burgut cho'qqilar uzra uchib, yerda o'zi ov qilib oziqlanishi bu baxt.

Baxt bu juda juda keng tushuncha! Baxt oyoq kiyimga o'xshaydi, hammani o'lchami har hil. Ingiliz tilini o'qiyotgan student uchun IELTS olishi baxt. Kiyimi yo'q inson uchun ustiboshi bo'lishi bu baxt. Kichkina qizaloq uchun uning Otasi ishdan kelishi baxt. Qor hammaga ham quvonch olib kelavermaydi. Bugun etik, qo'lqob, shapka, sharf olgan bolakay uchun qor yog'ishi bu baxt. Etigi yo'q, ertaga maktabga nima kiyishini bilmay turgan bolakayga esa bu baxt emas !

Inson doim baxt uchun shartlar qo'yadi:

O'qishga kirsam baxtli bo'laman.

Uylansam baxtli bo'laman.

Mashina olsam baxtli bo'laman.

Tuzalib ketsam baxtli bo'laman.

Haj qilsam baxtli bo'laman.

Amerikaga borsam baxtli bo'laman.

Inson hozir, shu daqiqalarda baxtli emasmi, ishonorila shu shartlari amalga oshganidan so'ng ham baxtli bo'la olmaydi! Ko'p insonla baxtni, lazzat keltiruvchi narsalarda deb o'ylaydi, lekin anashu narsani lazzati ketganidan so'ng tushinib yetadi bu baxt emas ekanligini! Inson o'zida yo narsalani baxt deb hisoblidi.

Kimdir erishilmagan narsalarni baxt deb bilsa, kimdir esa yo'qotgan narsalarini baxt deb biladi.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, baxt siz uchun nima ?
Man bu haqida juda ko'p tafakkur qildim va bir xulosaga keldim:

Baxt bu har kuni ilm olish ekan !

Ilm olmayotgan insonni man baxtsiz deb bilaman.
Bilasilarmi ilm olish nega baxt, chunki ilm bilan
Baxt nima ekanligini tushunib yetasiz, shu sabab
Ilm bu baxt !

Baxtga erishishni bitta ajoyib yo'li bor bu ham
bo'lsa; boshqalarni baxtli qilishdir..!

"Eng muhumi baxtli kuningda o'lishdir"

Mukammallik

Bitta narsani unutib qo'yamiz, insonlar "ideal" ya'ni mukammal emas va "ideal" bo'lolmaydi ham. Hech qachon mukammal inson izlamang, har bir insonda bar bir qanaqadir kamchilik bo'ladi. Insonlarni kamchiligi bilan birga qabul qiling. Bir kamchiligi bo'sa, o'nta yaxshi xislatlari bordir. Biz doim ana shu bitta kamchiligini ko'ramiz. Lekin aksincha, o'nta yaxshi hislati bitta yomon xislatini yeb yuborishi kerak.

Shunchaki yon atrofizga qarang, hamma insonda kamchiligi bor: bittasi ko'p gapiradi, ikkinchisi dangasa, uchinchisi doim kech qoladi, to'rtinchisi ko'p telefon o'ynaydi, beshinchisi ovqatni to'kib yeydi, oltinchisi kiyimiga ahamiyat bermaydi, yettinchisi sizni tushunmaydi, sakkizinchisi chaqimchi, to'qqizinchisi bo'yi past, oninchisi ziqna, pul bermaydi, hullas shunaqa har birimizda uchraydigan kamchiliklar. Insha'Alloh bu kamchiliklar ham to'g'irlanib ketadi. Bu dunyodagi eng "ideali" bu - "Islom dini". Musulmonlar esa "ideallik tomon intiluvchilardir".

Ko'p holatlarda biz qiladigan xato – avval ideal qilib, keyin ishni boshlamoqchi bo'lamiz. Ammo bir narsani ko'zdan qochiramiz: Biz hech qachon komil bo'la olmaymiz. Har bir ishimizda nuqson bor. Aslida, Ishni boshlanishi – nuqson bilan boshlanadi, keyin, sekin-sekin nuqsonlar kamayib boradi. Oxiriga kelib esa nuqsonlar nisbatan kamayadi, lekin baribir nomukammaligicha qoladi.

«Mukammallikning chegarasi yo'q».

Mukammal qilaman keyin boshlayman deyapsanmi? Unday bo'lsa boshlay olmas ekansan! Avval boshla, keyin mukammallikka intil!

*Yigit mukammal qiz hohlaydi,
Qiz mukammal yigit.*

*Ular bilishmaydiki Alloh taolo ularni: bir birlarini
to'ldirishlari uchun yaratgan !*

Mukammal munosabatlar mavjud emas !

*Ayollarda aql bor: erkaklardagi ahmoqliklarga
ahamiyat bermaslik uchun.*

*Erkaklarda kuch bor: ayollarning ojizliklarini
ko'tarish uchun.*

Kashandalar

Chekish haqida shunchalar ko'p yozishyaptiki, yaqinda o'qishni tashlasam kerak. Bir oy avval chekuvchi insonlarga hurmatim juda tushib ketdi, to'g'ri u kunga qadar ham hurmatim baland mas edi, lekin bir voqeadan so'ng shu holat yuz berdi. Kattaladan so'rasang, siqilganim uchun chakyapman deydi. Chaksa "расслабиться" qilarmush, g'am-tashvishlarini unutmush va shunga oxshagan mush mushlar.

Bilasizlarmi bunaqa insonlarni kimga oxshataman: bir "размер" kichkina oyoq kiyim kiyib yurganlaga. Yani: Go'yo tamaki chakkan payti o'sha siqvotgan oyoq kiyimini yechib turib, chakib bo'lgach yana kiyib ketgan odamga. Yangi, o'ziga loyiq oyoq kiyim olish haqida esa gap bo'lishi ham mumkun emas...

Aslida shu oyoq kiyimni kiyib yurishiga ham o'zi aybdor bo'ladi. Agar u Allohga qaytganida endi, Alloh unga o'ziga loyiq "oyoq kiyim" bergan bo'lar edi, yani hayot.

Sigaret bilan gunoh ortirgani qoladi holos. Tamakini tinchlantiruvchi hususiyatiga keladigan bo'lsak bu inson nafas olish, nafas chiqargani uchun sodir bo'ladi holos.

Yoshlarga keladigan bo'lsak, nima sababdan tamaki chakvotganlarini bilmaydilar, afsus.

Inson shunchalar ham ongsiz bo'lishi mumkunmi ?

Shunchaki ko'r - ko'rona taqlid qilish...

Alloh barchamizni o'zining yo'lidan adashtirmasin, bunaqa "дешевка" narsalar o'zini hurmat qilgan insonlar uchun emas !

Salom berish

Agar ketayotgan yo'limizdan bizdan katta inson chiqib qolsa tabiiy, "Assalomu alaykum" deb salom beramiz. Salom berish bu sunnat amal, alik olish esa vojib. Salomga alik olmasalar ham, salom berishni to'xtatmang !

Agar yo'lingizdagi inson oldida farzandi yoki nabirasi bo'lsa, salom berishimiz shart, chunki biz o'rnak bo'lishimiz lozim, biz salom berganimizni ko'rgan yosh bola asta sekin buni ko'rib, u ham salom berishni o'rganadi. Siz salom bersangiz, man salom bersam, ularni ko'rgan yosh bolalar ham bizga ergashadi Insha'Alloh.

Agar sizdan yoshroq inson oldizdan kelayotgan bo'lsa, agar "наушники" da bo'sangizlar, uni pasaytirib turinglar toki u yosh bola oldiladan o'tib ketgunicha, sabab agar u yosh bola sizga salom bersayu siz eshitmay o'tib ketsangiz, haligi bola "kattalar barbir salomga alik olmas ekan" deb salom berishni tark qilib qo'yishi mumkun va bunga siz sababchi bo'lib qolmang !

Salom nafaqat bizdan katta insonlarga balki bizdan yosh bo'lgan yoshlarga ham beriladi.

*Birov seni qo'rqitsa, qo'rqma !
Birov senga va'da bersa, ishonib yuborma !
Birov seni tushkunlikka tushurmoqchi bo'sa,
tushkunlikka tushma !*

Olam kimmi qo'lida...?

Allohga suyan !

So'ngi so'z

Meni menchalik taniganingizda, mening kitobimni o'qib o'tirmagan bo'lar edingiz. Hamma o'zini narxini, nechchi pul turishini juda yaxshi biladi. Meni odamlani ko'ziga katta, o'zimning ko'zimga esa kichik qilib ko'rsat, toki qalbgga kibr yaqin kelmasin.

Bu yozgan fikrlarimni ma'lum bir muddatdan so'ng o'qisam, odam shunaqayam fikrlaydimi deb o'zimni koyishim mumkun va bu tabiiy. Inson doim rivojlanar ekan, kechagi bildirgan fikri bugungisiga to'g'ri kelmasligi mumkun. Bu ikkiyuzlamachilik emas balkim rivojlanishdir !

Allohdan o'qigan, yozganlarimizga amal qilishimizga kuch-quvvat berishini va iymonimizni mustahkam qilishini so'rab, so'zimni yakunlayman.

Agar kitobdan hato va kamchiliklar topgan bo'lsangiz bu kaminaning aybdir, agar bir yaxshilik topgan bo'lsangiz bu Allohdandir !

Hayot - hotiradir, unutsang o'lasan...